

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI  
PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**“IPAK YO‘LI” TURIZM VA MADANIY MEROS XALQARO  
UNIVERSITETI**

**ABLAKULOVA IRODA KAMOLIDINOVNA**

**XX ASR O‘ZBEK ROMANLARINING INGLIZCHA TARJIMALARIDA  
MILLIYLIKNING IFODALANISHI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**(filologiya fanlari)**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

UO‘K: 81’25  
A 12

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on philological sciences**

**Ablakulova Iroda Kamolidinovna**

XX asr o‘zbek romanlarining inglizcha tarjimalarida milliylikning ifodalanishi .... 3

**Аблакулова Ирода Камолидиновна**

Выражение национальных особенностей в английских переводах узбекских романов XX века ..... 27

**Ablakulova Iroda Kamolidinovna**

Expression of national characteristics in english translations of uzbek novels of XX century..... 53

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 58

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**“IPAK YO‘LI” TURIZM VA MADANIY MEROS XALQARO  
UNIVERSITETI**

**ABLAKULOVA IRODA KAMOLIDINOVNA**

**XX ASR O‘ZBEK ROMANLARINING INGLIZCHA TARJIMALARIDA  
MILLIYLIKNING IFODALANISHI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2024**

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.3.PhD/Fil.1972 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.samdhti.uz](http://www.samdhti.uz)) hamda "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz) manziliga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Ruzmanova Roxila Usmanovna**  
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Umurova Guzal Xotamovna**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Fayzulloyev Otabek Muxammadovich**  
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**O'zbekiston davlat sharqshunoslik universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_\_ dagi majlisida bo'ladi. (Manzil: 140104, O'zbekiston, Samarqand sh., Bo'stonsaroy ko'chasi, 93-uy. Tel: (99866) 233-78-43; faks (998966) 210-00-18; e-mail: [info@samdhti.uz](mailto:info@samdhti.uz)).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand, Bo'stonsaroy ko'chasi, 93. Tel.: (99866) 233-78-43, faks: (99866) 210-00-18.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2024-yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ da \_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi)

**A.A.Yaxshiyev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**G'.Q.Mirsanov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

**Sh.S.Safarov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori, professor

## KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon adabiyotshunosligida badiiy asar tarjimalarining qiyosiy tadqiqi, tarjimada milliylikning ifodalanishi, tarjimaning haqqoniyligini ilmiy baholash va tadqiq etish, tarjima asarda tarixiy-milliy manzarani qaytadan yaratish, shuningdek, mazkur muammolarni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Ayni paytda milliylikni qayta yaratish masalasini o‘zida aks ettirgan tarixiy romanlarni tarjima qilish, tarjimada madaniyatlararo o‘zgachaliklarni to‘liq o‘rganish, ma’lum bir ijodkor asarlarini tarjimashunoslik va badiiyat qonuniyatlari asosida tadqiq qilish yuzasidan bajarilayotgan tadqiqotlar muhim ahamiyatga ega sanaladi.

Dunyoning yetakchi ilmiy-tadqiqot maktablarida XX asrda yaratilgan o‘zbek romanlarining ingliz tilidagi tarjimalarida milliylikning aks etishi, maqollar, iboralar, tarixiy va arxaik so‘zlarning tarjimada berilishi bilan bog‘liq matnning leksik-semantik muammolari yoritilmoqda. Amaliy tarjima tadrijini tadqiq qilish, tarjimada badiiy tasvir vositalari tahliliga bag‘ishlangan muayyan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Jumladan, badiiy matnning semantik xususiyatini tarjimada aks ettirishda kommunikativ vositalarning o‘rni, badiiy matnda maqol va iboralarning semantik, pragmatik xususiyatlari o‘rganilmoqda. Tarixiy va arxaik so‘zlarni tarjima qilish usullari, iboralarning semantik xususiyatlarini dominant leksika vositasida ifodalash metodlari singari masalalarga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Mustaqil O‘zbekistonning umumjahon hamjamiyatiga integratsiyalashishi uchun milliy adabiyot namunalari ingliz tiliga tarjima qilinishi va ularning dunyo xalqlari e‘tiboriga havola etilishida muhim islohotlarni amalga oshirishga e‘tibor kuchaymoqda. Zamonga xos tezkorlik va innovatsion g‘oyalar XX asr o‘zbek romanlari namunalari o‘rganishda ham yangicha ilmiy yondashuv va qarashlar shakllanishiga sabab bo‘lmoqda. Ayniqsa, adabiyotshunos va tilshunos olimlar oldiga nasriy asarlarni zamonaviy adabiyotshunoslikning yangi yo‘nalishlari vositasida davr ijtimoiy-madaniy munosabatlari bilan bog‘liq holatda o‘rganish, jahon tillariga tarjima qilish, o‘zbek xalqi madaniyatini tarannum etgan romanlarni dunyo xalqlari o‘rtasida keng targ‘ib etish kabi muhim vazifalarni qo‘yadi. Adabiyotshunoslik, tilshunoslik va tarjimashunoslik bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar sifati hamda ko‘lamini oshirishda “Jahon adabiyotining eng sara namunalari o‘zbek tiliga va o‘zbek adabiyotining eng yaxshi asarlarini chet tillariga tarjima qilish chora-tadbirlari dasturi”<sup>1</sup> dasturilamal vazifasini bajarmoqda. Shu sababli Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” va “Mehrobdan chayon” romanlari, shuningdek, Oybekning “Navoiy” romanining ingliz tiliga tarjimalarini qiyosiy tadqiq etish, tarjimada milliylikning ifodalanishi, tarjimaning haqqoniyligini ilmiy baholash, tarjima asarda tarixiy-milliy manzarani qaytadan yaratish, shuningdek, mazkur muammolarni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilish dolzarbdir.

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida»gi farmoyishi // Xalq so‘zi, 2017-yil 13-yanvar, № 9 (6703).

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son, 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son, 2019-yil 21-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-son, 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta‘lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-son, 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmonlari; 2012-yil 10-dekabrdagi “Chet tillarni o‘rgatish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1875-son, 2021-yil 19-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-5117-son qarorlari hamda shu faoliyatga aloqador boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda ko‘rsatilgan vazifalarni amalga oshirish jarayonida mazkur tadqiqot ma‘lum darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar taraqqiyotining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Badiiy asarlarni xorijiy tillarga tarjima qilish va tarjimada milliylikning ifodalanishi masalasi mahalliy hamda xorijiy olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Badiiy tarjimaning turli muammolari bilan xorijlik olimlar orasida R.Bell, S.Bassnett, M.Baxtin, Y.Kristeva, V.Komissarov, L.Alekseyeva, J.Vinay, J.Darbelnet, P.Krings, E.Gentzler, K.Liu, X.Zhang, A.Barselona va boshqalar shug‘ullangan<sup>2</sup>.

Tadqiqot ishlarini badiiy tarjima, badiiy asarlardagi frazeologik birliklar, uslubiy sinonimlar, lingvostilistik va lingvokulturologik, leksik-stilistik xususiyatlar masalalariga bag‘ishlagan mahalliy olimlar sifatida K.Musayev, M.N.Xolbekov, Sh.Safarov, G‘.Rahimov, Sh.Usmanova, D.U.Xoshimova,

---

<sup>2</sup> Bell R. Translation and translating: Theory and practice. – London and New York: Longman, 1991. – 162 p.; Bassnett S. Translation Studies. – London and New York: Psychology Press, 2002. – 176 p.; Бахтин М.М. Автор и герой: к философским основам гуманитарных наук. – СПб.: Азбука, 2000. – 336 с.; Кристева Ю. Бахтин, слово, диалог и роман // Французская семиотика: От структурализма к постструктурализму. – М.: Прогресс, 2000. – С. 427-457; Комиссаров В.Н. Современные переводоведение. – М.: ЭТС, 2002. – 424 с.; Алексеева Л.М. Специфика научного перевода. – Пермь: Издательство Пермского университета, 2002. – 125 с.; Vinay J.P. and Darbelnet J. Stylistique comparée du français et de l’anglais. – Paris: Didier: Georgetown University Press, 1977. – 331 p.; Krings H.P. Translation Problems and Translation Strategies of Advanced German Learners of French. In J. House, S. Blum-Kulka (Eds.), Interlingual and intercultural communication. Tübingen: Gunter Narr, 1986. – P. 263-275; Gentzler E. Metaphor and Translation. Encyclopaedia of Literary Translation into English Vol. 2. – London: Fitzroy Dearborn Publisher, 2000. – P. 941-945; Liu Q., Zhang X. Towards the Translation of Figurative Language. Canadian Social Science.Vol.1 No. 1. 2005. – P. 122 – 126; Barcelona A. Clarifying and Applying the Notions of Metaphor and Metonymy within Cognitive Linguistics: An update. In Dirven R. and R. Porings (Eds.), Metaphor and Metonymy in Comparison and Contrast, [Cognitive Linguistic Research 20]. – Berlin/New York: Mouton de Gruyter, 2002. – P. 207-279.

Y.Y.Arustamyan, R.H.Shirinova, M.Q.Baqoyeva, A.Sharipova, Z.Teshaboyeva, L.E.Xolmuradova va boshqalarni aytib o‘tish lozim<sup>3</sup>.

G‘.Salomov, R.Fayzullayeva, I.Mirzayev, M.Javburiyev, Sh.Isakova, N.O‘rmonova, H.Yusupova, R.Kasimova, O.Fayzullayev singari tadqiqotchilar biografik roman, she‘riyat va folklorda milliylilikni qayta yaratish bo‘yicha izlanishlar olib borishgan<sup>4</sup>. F.Xajiyeva, Sh.Rahimova, S.Hamdama, Q.Iskandarova, G.Kenjayevalarning ilmiy ishlarida Abdulla Qodiriy qalamiga mansub “O‘tkan kunlar” romanining ingliz tiliga tarjimalarida uslubiy vositalarni tarjima qilish masalalari tadqiq etilgan<sup>5</sup>.

Yuqorida nomlari keltirib o‘tilgan tadqiqot ishlari badiiy tarjimaning turli muammolariga bag‘ishlangan. D.Xoshimova “Boburnoma” matnidagi tasviriy vositalarning ingliz tiliga tarjimalari tadqiqi<sup>6</sup> mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishida

---

<sup>3</sup>Мусаев Қ. Стилистические вопросы художественного перевода с английского языка на узбекский: Автореф. дисс.... канд. филол. наук. – Самарканд, 1967. – 25 с.; Сафаров Ш. Тил назарияси ва лингвометодология. – Тошкент: Баёз, 2015. – 376 б.; Safarov Sh. Tarjimashunoslikning kognitiv asoslari. – Toshkent: Navro‘z, 2019. – 300 b.; Safarov Sh. Tilshunoslik terminlari lug‘ati. – Toshkent: Lesson press, 2023. – 356 b.; Rahimov G‘. Tarjima nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2016. – 175 b.; Usmanova Sh. Lingvokulturologiya. Toshkent: TDO‘TAU, 2019. – 245 b.; Xoshimova D.U. «Boburnoma» matnidagi tasviriy vositalarning ingliz tiliga tarjimalari tadqiqi: Filol. fan. dok. ... (DSc) diss. avtoref. – Toshkent, 2018. – 74 b.; Arustamyan Y.Y. Badiiy tarjimaning kognitiv-pragmatik asoslari: Filol. fan. dok. ... diss. avtoref. – Toshkent, 2022. – 78 b.; Shirinova R.X. Olam milliy manzarasining badiiy tarjimada qayta yaratilishi: Filol. fan. dok. ... diss. avtoref. – Toshkent, 2017. – 26 b.; Xolbekov M.N. Tarjimashunoslik va tarjima tanqidi. – Toshkent: Navro‘z, 2015. – 112 b.; Бакаева М.К. Англия, АКШ адабиётидан ўзбек тилига шеърӣ таржима ва қиёсий шеършунослик муаммолари: Филол. фан. док. ... (DSc) дисс. автореф. – Тошкент, 2004. – 50 б.; Шарипова А. Стилистик синонимлар таржимасининг лингвукulturологик хусусиятлари: Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2017. – 22 б.; Холмурадова Л.Э. Инглиз ва француз тилларидаги образли ва мотивлашган фразеологизмларнинг тематик идеографик талқини (лингвомаданий аспект): Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2017. – 55 б.; Тешабоева З. «Бобурнома»нинг инглизча таржималаридаги фразеологик бирликлар ва уларнинг миллий-маданий хусусиятлари: Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2017. – 20 б.

<sup>4</sup> Саломов Ф. Мақол ва идиомалар таржимаси. – Тошкент: ЎзРФА, 1961. – 159 б.; Файзуллаева Р. К проблеме передачи национального колорита в художественном переводе: Дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1972. – 225 с.; Мирзаев И.К. Проблемы передачи слов обозначающих реалии французской жизни на узбекский язык: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ленинград, 1975. – 22 с.; Жавбўриев М. Бадий таржимада миллий характер ва тарихий давр колоритини қайта яратиш (О.Ёкубовнинг “Улуғбек хазинаси” тарихий романининг немисча таржимаси мисолида): Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1991. – 202 б.; Исақова Ш. Бадий таржимада миллийлик ва тарихийликнинг акс эттирилиши (Ойбекнинг “Навий” романининг французча таржимаси мисолида): Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2004. – 132 б.; Ўрмонова Н. Таржимада тарихий-архаик лексикани акс эттириш принциплари ва таржима аниқлиги (ўзбек адабиётидан француз тилига қилинган таржималар таҳлили асосида): Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2008. – 26 б.; Юсупова Ҳ.Ў. Ўзбек халқ оғзаки насри намуналарининг инглизча таржималарида миллий колоритнинг ифодаланиши (эртақлар, латифалар мисолида): Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2011. – 26 б.; Касимова Р.Р. Ўзбек тўй ва мотам маросим фольклори матнларининг инглизча таржималарида этнографизмларнинг берилиши: Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Тошкент, 2018. – 152 б.

<sup>5</sup> Khajieva F.M. Decoding of Stylistic Devices in Russian and English Translations of the Uzbek Novel “Days Gone By” by Abdulla Qadiri (Stylistic Correspondences and Transformations) // Theoretical & Applied Science. 72. – P. 541-545; Xajiyeva F.M., Raximova Sh.R. Linguoculturological study of phraseological units in Russian and English translations of the novel «Days Gone By» by the Uzbek writer Abdulla Qadiri // O‘zMU xabarlari. Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti ilmiy jurnali, 2020. – №6 – B. 173-177; Khamdamova S.B. Interpretation of Antonomasia in the Translations of Abdulla Kadiri’s Novel “Days Gone By” // So‘z san‘ati xalqaro jurnali 3 (3), 2020. – B. 62-65; Kholmurodova O.I. Phraseological Units and their Cultural Features in the English Translations of A.Kadiri’s “Bygone Days” and “Scorpion from the Altar” // Central Asian Journal of Arts and Design. 2, 12 (Dec. 2021). – P. 62-65.

<sup>6</sup> Xoshimova D.U. «Boburnoma» matnidagi tasviriy vositalarning ingliz tiliga tarjimalari tadqiqi: Filol. fan. dok. ... diss. avtoref. – Toshkent, 2018. – 74 b.

“Boburnoma”dagi tasviriy vositalarning semantik, pragmatik, sintaktik-stilistik xususiyatlarining tarjimada qanday ifodalanganligini yoritib bergan. Y.Y.Arustamyan “Badiiy tarjimaning kognitiv-pragmatik asoslari” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida badiiy matnning adekvatligi muammosiga qaratilgan kognitiv lingvistika, lingvopragmatika va lingvomadaniyatshunoslikka xos yangi yondashuvlarni asoslab bergan<sup>7</sup>. R.Shirnova dissertatsiyasida badiiy tarjimada olam milliy manzarasining qayta yaratilishi muammolarini tahlil qilish hamda adekvat tarjima qilish bo‘yicha tavsiyalar yaratgan<sup>8</sup>.

Tahlili bayon qilingan tadqiqotlardan farqli ravishda, bizning tadqiqotimizda Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” va “Mehrobdan chayon”, Oybekning “Navoiy” romanlarining inglizcha tarjimalarida maqollar, tarixiy hamda arxaik so‘zlarning berilish uslublari qiyosiy o‘rganildi, ushbu asarlarda milliylikning ifodalanishi tahlili taqdim etildi, shuningdek, badiiy tarjimada variantlilik masalalari ishlab chiqildi.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti “Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universitetining “Til, adabiyot, tarjima va madaniy merosning xalqaro kommunikativ darajasini oshirish tadqiqi” istiqbolli ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** XX asrda yaratilgan “O‘tkan kunlar”, “Mehrobdan chayon” va “Navoiy” kabi o‘zbek romanlarining ingliz tilidagi tarjimalarida lingvomadaniy xususiyatlarning saqlanganlik jihatlarini tadqiq etishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari** quyidagilardan iborat:

milliylikni ifodalovchi maqollar, iboralar, tarixiy va arxaik so‘zlarni ingliz tiliga tarjima qilish usullarining uslubiy va pragmatik xususiyatlarini o‘rganish;

badiiy matnning semantik xususiyatini tarjimada aks ettirishda kommunikativ vositalarning dolzarbligini asoslash;

Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” va “Mehrobdan chayon” romanlari, shuningdek, Oybekning “Navoiy” romanidagi tarixiy va arxaik so‘zlarning ingliz tilidagi tarjimalarida mazmun ifodalanishida milliylikning saqlab qolinganligini tadqiq etish;

maqollar, iboralar, tarixiy va arxaik so‘zlar yordamida ifodalangan realiyalar orqali milliylikning voqelanishida matnga tegishli bo‘lgan intertekstuallik, kontekstual vaziyat, shakl va mazmun uyg‘unligi hamda kalkalash usuliga individual yondashuv prinsiplarini tahlil qilish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida XX asrda yaratilgan o‘zbek romanlaridan Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani<sup>9</sup> va ushbu asarning Mark Riz tomonidan ingliz tiliga tarjima qilingan “Bygone Days” nomli varianti<sup>10</sup>,

<sup>7</sup> Arustamyan Y.Y. Badiiy tarjimaning kognitiv-pragmatik asoslari: Filol. fan. dok. ... diss. avtoref. – Toshkent, 2022. – 78 b.

<sup>8</sup> Ширинава Р.Х. Олам миллий манзарасининг бадий таржимада қайта яратилиши: Филол. фан. док. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2017. – 26 б.

<sup>9</sup> Qodiriy A. O‘tkan kunlar. – Toshkent: Yangi nashr, 2019. – 368 b.

<sup>10</sup> Qodiriy A. Bygone Days. Translated by Mark Reese. – USA: Coppel TS, 2020. – 661 p.



“Mehrobdan chayon” romani<sup>11</sup> va uning I.M.To‘xtasinov, U.R.Yo‘ldoshev, A.A.Hamidov tomonidan amalga oshirilgan ingliz tilidagi tarjimasi<sup>12</sup>, Oybek qalamiga mansub “Navoiy” romani<sup>13</sup> va uning I.M.To‘xtasinov, O.M.Mo‘minovlar tomonidan qilingan inglizcha tarjimasi<sup>14</sup> tanlangan.

**Tadqiqotning predmetini** milliylikni aks ettiruvchi maqollar, iboralar, tarixiy va arxaik so‘zlarning ifodasi hamda ularni ingliz tiliga tarjima qilish usullari va tamoyillari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda lingvomadaniy, transformatsion, qiyosiy-chog‘ishtirma, kontekstual-situativ, kontekstual-distributiv, tavsifiy, etimologik va stilistik tahlil metodlaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

milliylikni ifodalovchi maqollar, iboralar, tarixiy va arxaik so‘zlarni ingliz tiliga tarjima qilishda tarjimaning ekvivalent va transliteratsiya usullaridan ko‘proq foydalanilganligi, milliy xarakterni ifodalovchi frazeologik birliklarning tarjimada tushirib qoldirilishi asar mazmuniga putur yetkazishi va milliy xarakterning to‘liq ochib berilmasligiga olib kelishi aniqlangan;

Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” hamda “Mehrobdan chayon”, Oybekning “Navoiy” romanlari matnidagi semantik xususiyatini tarjimada aks ettirishda lisoniy birliklar, iboralar, lingvomadaniy vositalardan samarali foydalanganligi isbotlangan;

Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” hamda “Mehrobdan chayon”, Oybekning “Navoiy” romanidagi tarixiy va arxaik so‘zlarning ingliz tilidagi tarjimalarida so‘zma-so‘z tarjima usulidan foydalanilganligi sabab realiyalar orqali davr ruhi nomutanosibligi ochib berilgan;

tahlilga tortilgan asarlardagi maqollar, iboralar, tarixiy va arxaik so‘zlar orqali ifodalangan realiyalarning milliylik xususiyatlari beriishi kalkalash tarjima usuli yordamida amalga oshirilganligi sabab tarjimada berilgan davr ruhini yoritishdagi asosiy kamchilik ekanligi dalillangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

XX asr o‘zbek romanlarining inglizcha tarjimalarida qo‘llanilgan leksik va frazeologik birliklarning milliylikni ifodalashdagi vazifalari keng o‘rganilgan;

badiiy matndagi leksik birliklarni tarjimada to‘g‘ri aks ettirish uchun leksik birliklarning ingliz tilidagi muqobil variantini qo‘llash usullari taklif qilingan;

XX asr o‘zbek romanlarini ingliz tiliga tarjima qilish bo‘yicha taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqotda muammoning aniq yondashuv usullari va nazariy ma‘lumotlarning ilmiy hamda badiiy manbalardan olinganligi, shuningdek, dissertatsiyada lingvomadaniy, qiyosiy va uslubiy tahlillar asosida chiqarilgan ilmiy mulohaza va tavsiyalarning amaliyotga keng joriy

<sup>11</sup> Qodiriy A. Mehrobdan chayon. – Toshkent: Navro‘z, 2019. – 288 b.

<sup>12</sup> Qodiriy A. The scorpion from the altar. Translated by I.M.Tukhtasinov, U.R.Yoldoshev, A.A.Khamidov. – Tashkent: Mashhur press, 2019. – 272 p.

<sup>13</sup> Muso Toshmuhammad o‘g‘li Oybek. Navoiy. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021. – 468 b.

<sup>14</sup> Oybek. Navoi. Translated by Tukhtasinov I.M., Muminov O.M. – Tashkent: Yangi asr avlodi, 2021. – 468 p.

etilganligi, erishilgan natijalarning tegishli muassasalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati XX asr o‘zbek romanlarini ingliz tiliga tarjima qilishda milliylikni qayta yaratish, hozirgi o‘zbek romanlari tamoyillari va ularning xususiyatlari bilan bog‘liq masalalarni hal etishda keyingi tadqiqotlar uchun nazariy manba bo‘lib xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati “Badiiy matn tarjimasi”, “Stilistika va matn tahlili”, “Qiyosiy adabiyotshunoslik”, “Yozma tarjima”, “Global adabiyot” kabi fanlar bo‘yicha maxsus kurs va seminarlar tashkil etishda, darslik, o‘quv qo‘llanmalar yaratishda, izohli lug‘atlarni takomillashtirishda, tadqiqot yo‘nalishi bo‘yicha dissertatsiyalar va ilmiy maqolalar yozishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** XX asr o‘zbek romanlarining ingliz tiliga tarjimalarini o‘rganish hamda asliyatdagi milliylikni tarjima qilish usullarini aniqlash bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

milliylikni ifodalovchi maqollar, iboralar, tarixiy va arxaik so‘zlarni ingliz tiliga tarjima qilishda tarjimaning ekvivalent va transliteratsiya usullaridan ko‘proq foydalanilganligi, milliy xarakterni ifodalovchi frazeologik birliklarning tarjimada tushirib qoldirilishi asar mazmuniga putur yetkazishi va milliy xarakterning to‘liq ochib berilmasligiga olib kelishi bilan bog‘liq ilmiy xulosalardan O‘zRFA QQB Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutida 2012-2016-yillarda bajarilgan FA-F1-G003 “Hozirgi qoraqalpoq tilida funksional so‘z yasalishi” mavzusidagi fundamental ilmiy loyihasini bajarishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limining 2022-yil 16-dekabrda 17.01/213-son ma‘lumotnomasi). Natijada qoraqalpoq adabiyotshunosligidagi nasriy asarlarning inglizcha tarjimalarida qo‘llanilgan leksik vositalarni yangicha yondashuv asosida tahlil qilishga erishilgan;

milliy xususiyatlarni o‘z ichiga olgan va ilmiy jihatdan asoslangan tarjima usullari bilan bog‘liq bo‘lgan ushbu dissertatsiyadagi materiallardan O‘zRFA QQB Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutida 2017-2020-yillarda bajarilgan FA-F1-G005 “Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunosligini tadqiq etish” mavzusidagi fundamental tadqiqot loyihasini amalga oshirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limining 2022-yil 16-dekabrda 17.01/212-son ma‘lumotnomasi). Natijada qoraqalpoq xalq og‘zaki ijodi va badiiy asarlarida milliy bo‘yoqdorlikni aks ettiruvchi realiyalarni o‘rganish ko‘lami kengayib, ularning ingliz tiliga tarjimasini takomillashtirishga erishilgan;

Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” hamda “Mehrobdan chayon”, Oybekning “Navoiy” romanlari matnidagi semantik xususiyatini tarjimada aks ettirishda lisoniy birliklar, iboralar, lingvomadaniy vositalardan samarali foydalanganligi xususidagi yangi qarashlar bo‘yicha tadqiq xulosalaridan I-204-4-5 “Ingliz tili mutaxassislik predmetlaridan axborot-kommunikatsion texnologiyalari asosida virtual resurslar yaratish va o‘quv jarayoniga joriy etish”

nomli innovatsion tadqiqot loyihasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2022-yil 26-dekabrda 3705/30.02.01-son ma'lumotnomasi). Tadqiqot ilmiy natijalarining qo'llanilishi qiyosiy adabiyotshunoslik, tarjimashunoslik, uslubiyat, leksikologiya va frazeologiya sohalarini yangicha qarashlar bilan yanada boyitgan;

Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" hamda "Mehrobdan chayon", Oybekning "Navoiy" romanidagi tarixiy va arxaik so'zlarning ingliz tilidagi tarjimalarida so'zma-so'z tarjima usulidan foydalanilganligi sabab realiyalar orqali davr ruhi nomutanosibligiga doir ilmiy xulosa va natijalaridan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston" telekanalida "Tilga e'tibor", "Assalom, O'zbekiston!" ko'rsatuvlari senariysini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2022-yil 12-dekabrda 03-19-2561-sonli guvohnomasi). Natijada tinglovchilar tarjimashunoslik va uning rivojlanish tendensiyalari, shuningdek, XX asr o'zbek romanlarining inglizcha tarjimalarida milliylikning ifodalanish haqida keng ma'lumotlarga ega bo'lgan;

tahlilga tortilgan asarlardagi maqollar, iboralar, tarixiy va arxaik so'zlar orqali ifodalangan realiyalarning milliylik xususiyatlari berilishi kalkalash tarjima usuli yordamida amalga oshirilganligi sabab tarjimada berilgan davr ruhini yoritishdagi asosiy kamchilik ekanligiga oid materiallardan O'zbekiston Respublikasi Samarqand viloyati Samarqand viloyat teleradiokompaniyasida 2022-yil 9-sentabr kuni e'fira uzatilgan "Assalom, Samarqand!" ko'rsatuvining dastur senariysini tayyorlashda foydalanilgan (Samarqand viloyat teleradiokompaniyasining 2022-yil 20-sentabrda 01-12/333-sonli guvohnomasi). Natijada tinglovchilarning tarjima san'ati va uning turli xalqlar o'rtasida madaniy ko'prik vazifasini o'tash qobiliyati haqidagi bilimlarini kengaytirish, shuningdek, kitobxonlikka qiziqishini yanada oshirish imkoniyati yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Ushbu tadqiqot natijalari 7 ta ilmiy-amaliy konferensiyalarda, jumladan, 3 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida chop etilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 17 ta ilmiy nashr chop etilgan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 10 ta maqola, ulardan, 6 tasi respublika va 4 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, boblar bo'yicha xulosalar, umumiy xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan bo'lib, umumiy hajmi 121 sahifadan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obykti, predmeti, Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, ilmiy yangiligi,

amaliy natijalari, olingan natijalarning ishonchligi, ishning nazariy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi, nashr qilingan ishlar, dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“XX asr o'zbek romanchiligi va tarjimashunoslik masalalari”** nomli birinchi bobida XX asr o'zbek romanchiligining o'ziga xos xususiyatlari o'rganilgan, XX asrda yaratilgan o'zbek romanlaridan Abdulla Qodiriyning “O'tkan kunlar” romani, asarning Mark Rizning ingliz tilidagi “Bygone Days” tarjimasi, “Mehrobdan chayon” romanining I.M.To'xtasinov, U.R.Yo'ldoshev, A.A.Hamidovning inglizcha tarjimalari, Oybek qalamiga mansub “Navoiy” romanining I.M.To'xtasinov, O.M.Mo'minovlar tomonidan qilingan inglizcha tarjimalari haqidagi ma'lumotlar tahlil qilingan, tarjima asarlar haqidagi tanqidiy mulohazalar bayon etilgan.

O'zbek adabiyotida roman janriga asos solinishi ham aynan jadidchilik faoliyati namoyandalaridan biri bo'lmish Abdulla Qodiriy nomi bilan bog'liq. U o'zining “O'tkan kunlar” romani orqali o'zbek adabiyotida roman janriga mansub asarlar yozishni boshlab berdi hamda romanchilik maktabiga asos soldi. “O'tkan kunlar” romani dastlab 1925-yilda I bo'limi va II bo'limi, 1926-yilda esa III bo'limi alohida-alohida kitoblar holda arab alifbosida chop etiladi. 1933-yil esa senzurdan o'tkaziladi hamda bir qancha o'zgartirishlar va qisqartirishlar qilingan holda qayta nashr qilinadi. Roman Boku shahrida 1933-yil lotin alifbosida, Toshkentda 1958-yil kirill alifbosida va Karachi shahrida 1958–1961-yillar o'zbek tili arab alifbosida chop etiladi. 1926-yilgi asl nashriga asoslangan o'zbek kirill alifbosidagi dastlabki to'liq nashri 1994-yilda Toshkentda chop etiladi.

“O'tkan kunlar” asari qahramonlaridan Yusufbek hoji va uning o'g'li Otabek obrazlari vositasida yozuvchi aynan jamiyatda yuz berayotgan siyosiy hodisalar, mavjud muammolar, muammolarning sabablari hamda yechimlariga oid bo'lgan o'z qarashlarini ochib beradi. Xususan, asar qahramonlariga ham ismlarni bejizga Yusufbek, Otabek, O'zbekoyim tarzida tanlamagan. Birinchidan bu ismlar qaysi tildan olinganligi masalaning e'tiborli jihatlaridan birini egallasa, ikkinchidan, bu ismlar anglatgan ma'no ham ko'p mas'uliyatli vazifalarni o'z zimmasiga olgan. O'zbekoyimda millatni nomi ishtirok etgan bo'lsa, Otabek va Yusufbek so'zlari tarkibida ham o'zbek so'zi tarkibidagi bek qo'shimchalarining qatnashganligi alohida ahamiyatga ega hisoblanadi. Ijodkor asarda hatto qahramonlarga ismlar qo'yish masalasida ham o'zining siyosiy maqsadini singdirib yuborishga intilgan va bunga erishgan.

Milliylik ruhi yuqori darajada aks etgan XX asr o'zbek nasrining barhayot asarlaridan yana biri Abdulla Qodiriy qalamiga mansub “Mehrobdan chayon” romanidir. Roman 1928-yilda yozilgan bo'lib, ilk marta 1929-yil Samarqandda nashr qilingan. Qodiriyshunoslarning 30-yillardagi taqrizlarida romanlarning g'oyaviy yo'nalishi, ijtimoiy talqiniga e'tibor qaratilgan edi. 1956-yildan Abdulla Qodiriy romanlari to'la holda nashr etila boshlangach, ularni xolis, o'z holicha o'rganishga imkon bo'ldi. Shuningdek, mamlakatimiz mustaqillikka erishgach “Mehrobdan chayon” romani 1994-yil “O'tkan kunlar” romani bilan bir kitobda G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2016-yilda esa “Yangi asr

avlodi”, 2008-2018-yillarda “Sharq” nashriyoti tomonidan chop etilgan va bugungi kunda ham ijodkor asarlariga bo‘lgan talabning nihoyatda yuqori ekanligi inobatga olingan holda ko‘plab nusxada nashr qilish davom etmoqda.

“Olamning yaxlit falsafiy konsepsiyasi” “O‘tkan kunlar” (A.Qodiriy), “Sarob” (A.Qahhor) “Qutlug‘ qon”, “Navoiy” (Oybek) kabi sanoqli romanlardagina aksini topgan”<sup>15</sup>. Prof. Sh.Safarov ta’kidlaganlaridek, “Ong olam va matnni bog‘lovchi vosita bo‘lganligi bois, tarjimashunoslar uning tadqiqi bilan ozmi-ko‘pmi shug‘ullanib turadilar”<sup>16</sup>. Biz tahlilga tortgan “olam yaxlit falsafiy konsepsiyasi” aks etgan asarlardan yana biri Muso Toshmuhammad o‘g‘li Oybekning “Navoiy” romanidir. “Navoiy” romani ham aynan Alisher Navoiy yashagan asr tarix voqealari o‘z aksini topganligi bilan qimmatlidir. Oybek romanni yozish uchun tarixiy asarlarga ham murojaat qilgan. Jumladan, Sharafiddin Ali Yazdiy, Zayniddin Koshifiy, Qazviniy, Muhammad Tolib, Abdurazzoq Samarqandiy, Vosifiy, Mirxond singari olimlarning asarlarini tarixiy nuqtayi nazardan o‘rganib chiqqan. Oybek 1940-yil “Navoiy” romani ustida ish boshlaydi va uni 1942-yilda tugatadi. Roman uzoq muhokamalarga sabab bo‘lgan va ilk marotaba 1944-yilda nashr etilgan.

Abdulla Qodiriy ijodi Amerikada “The relationship of Abdulla Kadiriy's Historical Novels to the Earlier Uzbek Literary Traditions” (“Abdulla Qodiriy tarixiy romanlarining ilk o‘zbek adabiy an‘analariga aloqasi”) mavzusida ilmiy-tadqiqot ishi olib borgan Xristafor Maykel Murfi adib romanlariga “struktural adabiyotshunoslik uslubi” nuqtayi nazaridan yondashadi<sup>17</sup>.

Abdulla Qodiriy asarlari ingliz, rus, uyg‘ur, arab, fransuz, nemis va boshqa ko‘plab tillarga tarjima qilingan. XX asr o‘zbek nasrining gultoji sanalgan “O‘tkan kunlar” romani Xolid Said hamda Abdulla Qamchinbek tomonidan 1931-yilda ozarbayjonchaga tarjima qilingan. Asarning rus tiliga tarjimasini 1958-yil Lidiya Bat va Vera Smirnova amalga oshirgan. Ayni damda asar bo‘yicha qilingan oxirgi tarjimalar Kerol Ermakova<sup>18</sup>, Mark Riz<sup>19</sup> hamda Ilhomjon To‘xtasinovlar tarjimalaridir. Britaniyalik tarjimon olimi Kerol Ermakova “O‘tkan kunlar” romanini rus tilidan ingliz tiliga o‘g‘irgan. Asarning tarjima va nashr qilinish loyihasi Islom Karimov Fondi ko‘magida amalga oshirilgan. Asar 2018-yil Fransiyaning yetakchi nashrlaridan bo‘lmish “Nouveau Monde” nashriyotida nashr qilinadi.

Bizningcha, asarni asliyatdan emas tarjima matnidan foydalanib tarjima qilish esa tarjima uchun bir qator kamchiliklarni keltirib chiqaradi:

1. Ilgari qilingan tarjima matnida tashlab ketilgan matnlar bo‘lsa, bu o‘z navbatida keyingi tarjimada ham aks etmaydi.

2. Tarjimada asliyatdagi mazmun xato tarjima qilingan bo‘lsa, bu xatolik ikkinchi tarjimada ham yana takrorlanadi.

<sup>15</sup> Умуров Х. Адабиётшунослик назарияси. – Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2004. – Б. 213.

<sup>16</sup> Safarov Sh. Tarjimashunoslikning kognitiv asoslari. – Toshkent: Navro‘z, 2019. – B. 84.

<sup>17</sup> Норматов У. Қодирий боғи. – Тошкент: Фан, 1995. – Б. 26.

<sup>18</sup> Qadiri A. Days Gone By. Translated by Carol Ermakova. – Paris: Nouveau Monde, 2018. – 250 p.

<sup>19</sup> Qodiriy A. Bygone Days. Translated by Mark Reese. – USA: Coppel TS, 2020. – 661 p.

3. Asarlarni asliyat matnidan emas, balki tarjima matnidan foydalanib tarjima qilish asarning mukammal tarjimalari yaratilmasligiga sabab bo‘ladi.

“O‘tkan kunlar” ning Kerol Ermakova tomonidan tarjima qilingan inglizcha matniga so‘z boshini (6-8) Islom Karimov Fondi rahbari Lola Karimova yozadi va unda asarning yaratilishi, nashri haqida qisqa ma’lumot beradi. Lola Karimova so‘z boshida shuningdek, asarda aynan Kumush ismli obraz tanlanganligini ham alohida izohlaydi. “O‘tkan kunlar” Turkiston o‘lkasining ijtimoiy-siyosiy hayotidan hikoya qiluvchi tarixiy asardir. Asarda Toshkent, Marg‘ilon, Qo‘qon kabi real joy nomlari hamda o‘sha davrda hukmronlik qilgan tarixiy shaxslar obrazi ham mavjud. “O‘tkan kunlar” romanining Kerol Ermakova tarjimasida berilgan matni jumalarning sodda ekanligi bilan ajralib turadi.

“O‘tkan kunlar” romani amerikalik sharqshunos Mark Riz tomonidan ham tarjima qilingan. Tarjimon ushbu asarni tarjima qilishi uchun 15 yil vaqt sarflaganligini alohida qayd etadi. Tarjimaning dastlabki taqdimoti O‘zbekistonning Vashingtondagi elchixonasida 2019-yil dekabr oyida bo‘lib o‘tadi. Biz o‘z tadqiqotimizni “O‘tkan kunlar” tarjimasining 2020-yildagi nashri bo‘yicha olib bordik. Mark Riz asarni tarjima qilishda asarning 1926-yildagi nashridan foydalangan. Asliyat matnida keltirilgan turli leksik birliklarning 415 ta izohi va sharhlari tarjima so‘ngida berilgan. Mark Riz tarjimasi nisbatan mukammal tarjima hisoblanadi. Bunga tarjimonning ham asar muallifi ham asarda aks etgan xalq tarixi, ijtimoiy-siyosiy hayoti bilan yaqindan tanishib chiqqanligi bilan izohlanadi. Tarjimada milliy realiyalar ko‘proq saqlab qolingani tarjimaning diqqatga sazovor jihatlaridandir. Tarjimada muqobil varianti topilmagan milliylik aks etgan ibora, tarixiy hamda arxaik so‘zlar qisqa izohlarda aks ettiriladi. Biroq tarjimaning yutuqlari bilan birga olib borgan tadqiqotimiz asarning Mark Riz qilgan tarjimasida ham bir qator kamchiliklar mavjud ekanligini ko‘rsatdi.

Mark Riz tarjimasida ham ayrim xatoliklar mavjud. Jumladan, milliylikni aks ettiruvchi ayrim tarixiy so‘zlar tarjima ham qilinmagan, izohi ham keltirilmagan. Ba’zilarining izohi xato keltirilgan o‘rinlar ham uchraydi. Tarjimada keltirilgan tarixiy va arxaik so‘zlarning ayrimlariga e’tibor qaratamiz.

**Asliyat:** *“E’timodlik bir kishining shahodatiga binoan toshkandlik Yusufbek hojining o‘g‘li – Otabek, bu kunda xonimizg‘a qarshi bosh ko‘targan Aziz parvonachi...”*<sup>20</sup>

**Tarjima:** *“According to evidence provided by a reliable witness, the son of Yusufbek Hajji from Tashkent, Otabek, under the aegis of Azizbek Parvanchi...”*<sup>21</sup>

*Parvonachi* so‘zi Mark Riz tarjimasida *Parvanchi* deb keltirilgan, shuningdek, izoh osti so‘zlari ham berilmagan. Bizningcha izohi quyidagicha berilsa to‘g‘ri bo‘lar edi:

*One of the highest occupations during the times of khanates. Parvonachi would mostly be beside the king and write decrees and orders; he would tell the king about the work.*

<sup>20</sup> Qodiriy A. O‘tkan kunlar. – Toshkent: Yangi nashr, 2019. – B. 90.

<sup>21</sup> Qodiriy A. Bygone Days. Translated by Mark Reese. – USA: Nashville TN, 2020. – B. 116.

“Navoiy” romani tarjimasi I.To‘xtasinov va O.Mo‘minov tomonidan ingliz tiliga tarjima qilingan va 2021-yilda “Yangi asr avlodi” nashriyotida chop etilgan. Asar bugungi kunga qadar ham rus, ingliz, ukrain, belarus, nemis, qozoq, turkman, arab, fors, eston, kabi xorijiy tillarga tarjima qilingan edi. Tarjimaning ingliz tilidagi ijobiy jihatlaridan biri u sodda va kitobxon uchun tushunarli leksik va frazeologik birliklardan foydalanib tarjima qilingan.

Bizningcha, “O‘tkan kunlar” romanining bugungi kunga qadar ingliz tiliga qilingan tarjima variantlari orasida o‘zida mavjud ba’zi kamchiliklarga qaramay aslyatdagi milliylik, tarixiylikni saqlash, aslyatga yaqin tarjima sifatida Mark Riz tarjimasini e’tirof etish mumkin.

Dissertatsiyaning **“O‘zbek romanlari tarjimalarida badiiy mahorat va uslub masalasi”** nomli ikkinchi bobida o‘zbek romanlarining inglizcha tarjimalarida badiiylik va o‘ziga xoslik ko‘rinishlari o‘rganilgan, Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” va “Mehrobdan chayon”, Oybekning “Navoiy” romanlari tarjimasida yozuvchi uslubi va tarjimon mahorati masalalari tahlil qilingan.

Badiiylik deyilganda, inson o‘zi anglagan voqelikni, borliqni aks ettirishda badiiy timsollar vositasida tasvirlash usuli tushuniladi. “Badiiylik” atamasining kelib chiqishiga nazar tashlasak, “badiiylik” “художественность” so‘zidan kelib chiqqan<sup>22</sup>. O‘zbek adabiyotshunosligida esa ushbu atama XX asrning boshlaridan ishlatila boshlangan. Badiiylik borasida turli xil ta’riflar mavjud. Adabiyotshunos olim H.Umurov badiiylik haqida shunday yozadi: “San’atning ham joni, ham qoni – badiiylikdir”<sup>23</sup>. “Badiiylik” tushunchasi doirasiga san’atning muayyan sohasi, san’at asarida yozuvchi o‘z oldiga qo‘ygan maqsad, uning aniq ifodalanishi, yozuvchi niyatining amalga oshganligi va asarning qiyomiga yetkazib ishlanganligi kiradi<sup>24</sup>. Ijodkor har doim o‘zi aytmoqchi bo‘lgan fikrni bevosita aytish imkoniga ega bo‘lmasligi mumkin, biroq uni badiiy asarga singdirib, aytishi mumkin. Olamdagi butun borliqda mezon mavjud bo‘lgani kabi badiiylikda ham mezonlar mavjud.

XX asr o‘zbek nasrining barhayot asarlaridan sanalgan “O‘tkan kunlar”, “Mehrobdan chayon” va “Navoiy” romanlarida badiiy tasvirning yuksak namunalari o‘z ifodasini topgan. Biz buni ayniqsa, “Navoiy” romanida Alisher Navoiy tasviriga bag‘ishlangan o‘rinlarda, tabiat tasvirida, shuningdek Aloiddin Mashhadiy portreti tasvirida yuksak darajada aks etganligini ko‘rishimiz mumkin. “O‘tkan kunlar”da esa Otabek, Kumush, Oftoboyim, O‘zbekoyim, Yusufbek hoji, Hasanali va boshqalar tasvirida badiiylik tasviri kuchli bo‘lsa, “Mehrobdan chayon”da Solih Maxdum obraziga berilgan sarkazm usulidagi tasvir asarning badiiylik nuqtai nazaridan alohida tahlilni talab etadigan o‘rinlaridandir. Biz yuqorida nomlari keltirgan badiiy asarlarni tarjima, til va adabiyot nuqtai nazaridan kelib chiqib badiiylik aks etgan o‘rinlarni tahlilga tortdik.

<sup>22</sup> Краткая литературная энциклопедия. Том 8. – М.: Советская энциклопедия, 1975. – В. 339.

<sup>23</sup> Умuroв X. Адабиётшунослик назарияси. – Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2004. – Б. 99.

<sup>24</sup> Краткая литературная энциклопедия. Том 8. – М.: Советская энциклопедия, 1975. – В. 338-345.

**Asliyat:** *Shuning uchun bo'lsa kerak, Otabekka ixlos qo'yib, unga o'z bolasi kabi qarar: "O'lganimdan keyin ruhimga bir kalima Qur'on o'qusa, bir vaqtlar Hasanali ota ham bor edi deb yodlasa, menga shunisi kifoya" deb qaror bergan va hozirdan boshlab Otabekka bu to'g'risida siporishlar berib, undan samimiy va'dalar olib yurg'uchi oq ko'ngillik bir "qul" edi<sup>25</sup>.*

**Tarjima:** *As solace, Hasan Ali was loyal to Otabek as only a father could be toward his son. He wished only one thing in return.*

*"After my death, if Otabek recites the Quran on behalf of my soul, commemorating the fact at one time there lived a man named Hasan Ali Ota, that would be all I need to rest my bones in peace."*

*It could be said of him that he was an Oq Kungli Odam who humbly beseeched Otabek to fulfill his final wishes and in turn received assurances that they would be fulfilled<sup>26</sup>.*

Asliyat matnida *o'z bolasi kabi qarar* jumlasini badiiylikni yuzaga kelishiga xizmat qilgan. *O'z bolasi kabi qarar* jumlasini bu Hasanalining Otabekka nisbatan mehribon ekanligini ifodalash uchun qo'llanilgan. Ijodkor bir so'z bilan "mehribon" deb qo'ya qolmagan-u, lekin uni badiiy yo'l bilan kishiga estetik ta'sir qiladigan tarzda "o'z bolasi kabi qarar" deb bergan. Hasanali Otabekka mehribon tarzida berganda uning badiiyligi yo'qolar edi. Tarjimada leksik xatolikka yo'l qo'yilgan. Tarjima quyidagicha bo'lganda maqsadga muvofiq bo'lar edi:

*Maybe, because of that, he adored Otabek, therefore he was accepted as his own child.*

Shuningdek, oq ko'ngil frazeologik birligi ham matnda keltirilgan bo'lib, Oq ko'ngil – birovga yomonlikni istamaydigan; beg'araz, yuragi toza, sofdil ma'nosini ifodalaydi.

Mark Riz tarjimasida tranlitteratsiya usulida "oq ko'ngil" deb berilgan va sarlavha osti izohida "a white-hearted" oq ko'ngil deb izohlab berilgan.

Asliyat matnida berilgan badiiy tasvir vositalarini qayta yaratishda tarjimonlar matnning badiiylik xususiyatlarini saqlab qolishga uringan. Shu bilan birgalikda, ayrim jumalarda ishtirok etgan badiiylik vositalari tarjima qilinmay tashlab ketilgan o'rinlar ham mavjud. Ayniqsa, bu holat milliylikni ochib berishga xizmat qiluvchi evfemizmlarni tarjima qilishda yaqqol ko'zga tashlanadi. Asliyat matnini qayta yaratishda ekvivalent tarjima usulidan unumli foydalanilgan. Bizningcha, badiiy tasvir vositalarining mukammal tarjimalariga erishish uchun o'zbek tilida bugungi kunga qadar yaratilgan asr oshgan asarlarning tarkibida mavjud badiiy tasvir vosita va ifodalarning o'zbekcha-inglizcha lug'atini yaratish kerak.

Asar yaratilishida ijodkorning tasavvur, tushuncha hamda olamni va undagi voqea-hodisalarni qay tarzda idrok etishi, ifodalashi yetakchi o'rinlardan birida turadi. Ana shunday olamni, voqea-hodisalarni qayta tasvirlashda ijodkorlarning bir-birini takrorlamaydigan o'ziga xos uslubi mavjudki, biz uni umumiy bir adabiy atama sifatida individual uslub deb ataymiz. "Individual uslub - ... ijodkorning

<sup>25</sup> Qodiriy A. O'tkan kunlar. – Toshkent: Yangi nashr, 2019. – B. 6.

<sup>26</sup> Qodiriy A. Bygone Days. Translated by Mark Reese. – USA: Nashville TN, 2020. – P. 27.



voqelikni o‘zicha idrok etishi...”<sup>27</sup> Yaratilgan asarlar aynan bir xil bo‘lmaydi. Bu esa inson olam va odam haqidagi tasavvurlari bir-biridan mutlaq farq qilishini anglatadi. “Uslub - ... ijodkorning originalligini, uning boshqa yozuvchilardan farqini ko‘rsatuvchi bosh omildir.”<sup>28</sup>

Uslubda “shaxsiylik va umumiylik juda murakkab dialektik birlikda bo‘lib, o‘zaro shartlangan, bir-birini ifodalaydigan”<sup>29</sup> shaklda namoyon bo‘ladi. Uslublarning ma‘lum xalqlar adabiyotiga mansub bo‘lgan milliy shakllari mavjud. Uslublar shu nuqtayi nazaridan ham farq qiladi. Uslublarning bir necha turlari mavjud bo‘lib, u asar yaratilgan janr bilan ham bevosita aloqador bo‘ladi. Masalan, realistik asarlarning uslubini realistik uslub tashkil etsa, romantik asarlarda romantik uslub yetakchi o‘rinda turadi. Uslublarning bulardan tashqari yana bir necha turlari mavjud bo‘lib, zamonaviy uslub ham mavjuddir. Kam mehnat qilib ko‘p rohat ko‘rishni istaydigan, vaqt qadri tushunchasini anglagan odamlar zamonaviy uslubda yaratilgan asarlarni ko‘proq yoqlaydi. Har bir xalq adabiyotida o‘ziga xos uslub mavjud bo‘lib, u asarning kompozitsiyasi, syujeti, uslubi kabilardan uning muallifi qaysi millat vakili ekanligi ayon bo‘ladi.

Ijodkorning uslubini bir qancha vositalar tashkil qiladi va u faqat til yoki badiiyat unsurlari bilan belgilanmaydi. Uslubni belgilashda biz quyidagi jihatlarni keltirishimiz mumkin:

1. Ijodkorning hayot haqidagi falsafiy qarashlari.
2. Hayotga nisbatan real qarashlari.
3. Ijodkorning hayot va unda kechayotgan voqealarni ruhshunos nuqtai nazari bilan tahlil qila olishi.
4. Jamiyatda yashayotgan insonlar jonli tilidan xabardorlik va boshqalar.

Ijodkor tomonidan hayotning turlicha tahlil va talqin qilinishi o‘z navbatida u yaratgan asar uslubiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Kimdir hayotda yuz bergan fojialarni fojiviy tarzda ifodalasa, boshqa ijodkor uni hajviy usulda ham tasvirlab o‘z asariga olib kirishi mumkin. Masalan, Oybekning “Navoiy” romanida voqealar rivoji real uslubda tasvirlanadi. Falsafiy mushohadalar yetakchi o‘rinda turadi. Ijodkor yaratgan asarlar tili xalqchil ekanligi alohida ahamiyat kasb etadi.

Abdulla Qodiriyning ham o‘z uslubi mavjud bo‘lib, “O‘tkan kunlar” romanidagi tasvir uslubi xususida olim O‘.Nosirov shunday yozadi: “A.Qodiriyning O‘tkan kunlar” romanida tasvir obyektiga nisbatan avtor pozitsiyasi “noaniq, hattoki xato edi” degan fikrni Otabek o‘limi bilan bog‘liq momentdan izlash, shungagina tayanib qolish tadqiqotchini tor ramkaga solib, chegaralab qo‘yishi o‘z-o‘zidan ma‘lum. Otabekning so‘nggi qismati haqidagi xabar Yusufbek hojining tanishi tomonidan yozilgan maktubda xabar qilingan. To‘g‘ri, maktub bir vosita. Uni o‘zgartirish ham mumkin edi. Ammo maktub shu o‘rinda tarixiy fakt – ishontirish vositasi sifatida qaraladi. Buning ustiga, avtor Otabekning ruslarga qarshi kurashini yoqlash yoki yoqlamasligini, shu orqali ruslarga munosabatini belgilashda Otabek qaysi ruslarga qarshi kurashadi degan

<sup>27</sup> Шукуров Н. Услублар ва жанрлар. – Т.: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1978. – В. 7.

<sup>28</sup> Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Т.: Ўзбекистон, 2002. – В. 550.

<sup>29</sup> Художественный метод и творческая индивидуальность писателя. – М., 1964. – В. 234.

savolga javob topishga to‘g‘ri keladi.”<sup>30</sup> A.Qodiriyning asarni yakunlash tarzi ham o‘ziga xosligidan dalolat beradi. Asarni qay tarzda tugashi ham bir janrga mansub bo‘lgan barcha asarlarda aynan bir xil tugaydi degan qoida adabiyotning hech bir nazariy kitoblarida qayd etilmagan. Buni har bir ijodkorning o‘z individual uslubi hal qiladi. Abdulla Qodiriyning asarlarining tili va uslubi haqida adabiyotshunos olim Baxtiyor Nazarov shunday deydi: “- Prozamizda Abdulla Qodiriyning badiiy tiliga teng keladigan go‘zal til yo‘q! Badiiy tilni ko‘pchilik adabiy til bilan chalkashtiradi. Badiiy til har bir ijodkorning individual uslubi, o‘ziga xos tilidir. Shu ma’noda badiiy til norma bo‘lmaydi. Qodiriy o‘z badiiy tilini yarata olgan so‘z san’atkoridir”<sup>31</sup>. Badiiy uslub o‘zida barcha uslub belgilarini qamrab olganligi bilan ajralib turadi. Badiiy asarlarda aniq qilib aytganda barcha uslub belgilari uchraydi. Masalan, Otabek va Kumush maktubi badiiy uslubda bitilgan bo‘lsa, Otabekning o‘z dushmanlari tomonidan tuhmat bilan qo‘rboshi huzuriga borganlarida bo‘lib o‘tgan suhbat rasmiy uslubda.

Ijodkor tomonidan qilingan mehnat boshqa til vakillariga tarjimonlar orqali yetib boradi. Asliyatning qay darajada asl holicha tarqalishi tarjimon mahoratiga bog‘liq bo‘ladi. Badiiy mahorat yozuvchining o‘ziga xos badiiy olami, badiiy matnni yaratishdagi san’atkorligidir. Tarjimonning mahorati asliyat tilining mohirona berilishi, obrazlarni qayta ikkinchi tilda yaratishi, badiiy tasvir vositalarini muqobil variantini topa olishi va boshqalarda namoyon bo‘ladi. Tarjimon mahorati badiiy asarni tarjima qilishda yaqqol namoyon bo‘ladi. Chunki badiiy asar tarjimasi bir asarda mavjud bo‘lgan ma’lumotlarni ikkinchi tilga tarjima qilib qo‘yish namunasi emas.

Ma’lumki, yozuvchi uslubi deganda, uning badiiy xarakter yaratishdagi o‘ziga xos tasvirlash manerasi tushuniladi. Har bir ijodkor o‘z individual uslubiga ega bo‘ladi. Uslub ijodkorning o‘zligini belgilaydi. Ammo uslubni yozuvchi o‘zi o‘ylab chiqargan deb qarash kerak emas. Jumladan, birorta o‘zbek yo‘qki, A.Qodiriyning “Moziyga qarab ish ko‘rmoq xayrlidir” degan mashhur so‘zi yoki uning personajlaridan Yusufbek hoji aytgan “Bu xonadondan hech kim norizo bo‘lib ketgan emas” so‘zlarni bilmasa. Bu Qodiriy uslubining o‘ziga xosligidan dalolat beradi.

Biz tadqiqotimiz obyekti bo‘lgan XX asr o‘zbek romanlaridan “O‘tkan kunlar”, “Mehrobdan chayon” va “Navoiy” romanlari tarjimalaridan ijodkor uslubining tarjimada qay darajada aks etganligini ayrim matnlar misolida aniqlab tahlilga tortdik.

**Asliyat:** *Ammo haqiqatda oradan o‘n besh-yigirma yil o‘tib, siz ham katta yigit bo‘lg‘ansiz, umr – otilg‘an o‘q emish*<sup>32</sup>.

**Tarjima:** *But really, more than fifteen years have passed since than, and you have become a young man... Life seems to have shot past like an arrow*<sup>33</sup>.

<sup>30</sup> Носиров Ў. Ижодкор шахси, бадий услуб, автор образи. – Т.: Фан, 1981. – Б. 149-151.

<sup>31</sup> <https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/suhbatlar/baxtiyor-nazarov-qodiriyning-qudrati>

<sup>32</sup> Qodiriy A. O‘tkan kunlar. – Toshkent: Yangi nashr, 2019. – B. 11.

<sup>33</sup> Qodiriy A. *Bygone Days*. Translated by Mark Reese. – USA: Nashville TN, 2020. – P. 33.

Umr haqida juda ko‘plab maqollar mavjud. Jumladan umr o‘qar daryoga ham o‘xshatiladi. Umrning otilgan o‘qqa qiyoslanishi esa A.Qodiriy uslubiga xos jihatlardan sanaladi. Tarjimada bu o‘xshatish “shot past like an arrow” deb berilgan. Bizningcha, tarjima quyidagicha bo‘lsa to‘g‘ri bo‘lar edi:

*But in reality, fifteen or twenty years later, you have become a young man, and your life has sucked a shot.*

Biz tahlil qilgan romanlarda badiiylik va uslub o‘ziga xos yo‘sinda ifodalangan. Ularning tarjimalarida aslyatdagi badiiylik va ijodkorning uslubi ma‘lum darajada qayta yaratilgan. Aslyatda badiiylikni va ijodkor uslubini yuzaga keltirgan tasvir vositalarning barchasi ham aks etmagan. O‘girmalardagi tafovutlar, ayniqsa so‘z tanlashdagi o‘zaro farqlar sezilarli darajada o‘rganildi; tarjimalardagi ma‘nolar bilan ish ko‘rar ekanmiz, ularning qaysi biri manba tilidan tarjima tiliga o‘tadi, qaysi birlari esa o‘zga tilga o‘tmaydi kabi muammolarga alohida e‘tibor qaratildi. Romanlarda to‘la ma‘noda o‘zbek xalqining milliy urf-odatlarini, o‘sha davrda xalq boshidan kechirgan qiyinchiliklar, nohaqliklar tasvirlanganligini har ikkala tarjimonlarimiz tushungan holda, tarjimalarda kitobxonga yetkazib berishga harakat qilganlar.

Dissertatsiyaning **“O‘zbek romanlarining inglizcha tarjimalarida milliy ruh va ifodaning yoritilishi”** deb nomlangan uchinchi bobida XX asr o‘zbek romanlari tarjimasida milliy xarakter xususiyatlari ifodasi o‘rganilgan hamda asl nusxadagi maqol, ibora, tarixiy va arxaik so‘zlarning tarjimada berilgan variantlari qiyosiy jihatdan tadqiq etilgan.

Milliy so‘zi arabcha so‘zdan olingan bo‘lib, “xalqona”, “millatga tegishli” degan ma‘nolarni bildiradi. Xarakter termini esa adabiyotda xususiy jihatlari mukammal tasvirlangan, o‘zida xatti-harakat, kechinma, nutqiy faoliyatning tarixan aniq tipini mujassamlantirgan, muallifning ma‘naviy hamda estetik konsepsiyasini ifoda etgan inson obrazidir. Badiiy asar jamiyat va unda yuz beradigan jarayonlarni o‘zida mujassam etganligi bois milliy xarakter tasviri ham bunda yetakchi o‘rinlardan birida turadi. “Xarakter yaratish badiiylikning o‘zak masalasi deb qarashimizning boisi shundaki, xarakter badiiy ijodning juda ko‘p unsurlari (syujet, kompozitsiya, til kabi)ni o‘zida jamlaydi, to‘g‘risi o‘ziga “ishlash”ga majbur qiladi”<sup>34</sup>.

Badiiy asarlarda qahramonlarning bir necha jihatlari ularning xarakterini ochib berishga xizmat qiluvchi vosita bo‘lib hisoblanadi. Masalan, muallifning bergan tasviri, asardagi qahramonlarning aytgan fikrlari, ularning kiyinishi, ularning nutqidan aytilgan fikrlar, asar qahramonlari bilan bo‘lgan munosabatlari va boshqalar. Badiiy asar tilining ahamiyati haqida Maksim Gorkiy shunday yozadi: “Til badiiy adabiyotda xarakterlar va manzaralar yaratish qurolidir”<sup>35</sup>. Masalan, biz tahlilga tortgan “O‘tkan kunlar” romani qahramonlaridan biri Otabekning xarakteri asar boshida muallif bergan tasvirdan boshlanib, uning keyingi bosqichlari Yusufbek hoji, O‘zbekoyim, Hasanali, Homid kabilar bilan

<sup>34</sup> Умурув Х. Адабиётшунослик назарияси. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2004. – Б. 48.

<sup>35</sup> Горький М. Литературно-критические статьи. – М.: Гослитиздат, 1937. – С. 584.

bo'lgan munosabatlarida davom etib boradi. "Faqat ijtimoiy sharoit asosida yuzaga chiqqan shaxs irodasi xarakterning asarda badiiy va g'oyaviy negizini ta'min qiladi"<sup>36</sup>. Biz bunga Otabekning Mirzakarim qutidor uyidan haydalgani va undan keyingi voqealar rivojida ko'rishimiz mumkin. Kumushning esa Otabek va otasi qo'lga olinganda maktubni olib ayol boshi bilan qo'rboshilar huzuriga borishida namoyon bo'ladi.

Biz "O'tkan kunlar", "Mehrobdan chayon" va "Navoiy" romanlarida aks etgan milliy xarakter xususiyatlarining tarjimada qayta yaratilgan o'rinlaridan ayrimlarini tahlilga tortdik. Ulardagi milliy xarakter xususiyatlarini qayta ifodalash uchun berilgan turli frazeologik birliklar, badiiy san'atlar OALDdagi izohi bilan birga keltirib o'tildi.

**Aslyat:** *Majlis Ziyo shohichining uyida Otabekning mehmondorchilig'i uchun yig'ilgan, yuqorida ismlari o'tkan zotlardan boshqa Homid, Rahmat ham Hasanali bor edilar*<sup>37</sup>.

**Tarjima:** *Ziyo Shohichi's household was hosting the party. Those attending were Hamid, Rahmat, and Hasan Ali, as well as the individuals just introduced – and all were assembled in Otabek's honor*<sup>38</sup>.

Xalqimizda bir mehmon huzuriga qo'shnilarni, yaqin qarindoshlarni suhbatga chaqirish an'anasi bor. Asardagi ushbu o'rinda ham aynan shu jihatlar aks etgan. Shuningdek, mehmonni qo'shnilar va yaqinlar ham "bir ko'rish tanish, ikki ko'rish bilish" tarzida garchi qarindoshlik jihati bo'lmasa-da, mehmon qilib kuzatadi. Tarjimada "Otabekning mehmondorchilig'i uchun" jumlasini to'g'ri tarjima qilinmagan. Tarjimaning shakli va mazmunan muvofiq varianti quyidagicha:

*In the meeting for the guest behalf Otabek, there were Khomid, Rahman and Hasanali except those guests whose names were mentioned in Majlis Ziyo's house.*

**Aslyat:** - *Sizmi? - deb kulimsiradi. – Otam bo'lmasangiz ham meni otaliq muhabbati bilan suygan sodiq va mehribon bir kishimsiz – ya'ni ma'naviy otam*<sup>39</sup>.

**Tarjima:** *"You?" he said, smiling. "Though you are not my father, you are a man who has loved me with nothing but the most dedicated paternal love. You have always been a faithful and kind presence – hence you are my spiritual, moral father"*<sup>40</sup>.

Matnda milliy xarakterning bir necha qirralari ochib berilgan. Birinchidan, Hasanali Otabeklarning "quli" ekanligiga qaramay, Otabek unga bu "qul" degan nuqtayi nazardan kelib chiqib munosabatda bo'lmaydi. Ikkinchidan, Hasanali uni farzand kabi e'zozlashi barobarida Otabek ham Hasanalini otadek qadrlaydi. Shu bois ham "ma'naviy otamsiz" deb Hasanalini ko'nglini ko'taradi. Hasanali kabi farzandsiz insonga otamsiz deb aytilishi va murojaat qilinishi ulkan ma'naviy baxtdir. Chunki unga umr bo'yi hech kim bola sifatida ota deb murojaat qilmagan. Tarjimada milliy xarakterni ochishga xizmat qilgan "ma'naviy otam" birikmasi "my spiritual, moral father" tarzida berilgan. Bu "mening ma'naviy, axloqiy otam"

<sup>36</sup> Кўшхонов М. Ойбек маҳорати. – Тошкент: Бадий адабиёт нашриёти, 1965. – Б. 5-6.

<sup>37</sup> Qodiriy A. O'tkan kunlar. – Toshkent: Yangi nashr, 2019. – B. 11.

<sup>38</sup> Qodiriy A. Bygone Days. Translated by Mark Reese. – USA: Nashville TN, 2020. – P. 32.

<sup>39</sup> Qodiriy A. O'tkan kunlar. – Toshkent: Yangi nashr, 2019. – B. 22.

<sup>40</sup> Qodiriy A. Bygone Days. Translated by Mark Reese. – USA: Nashville TN, 2020. – P. 44.

ma'nosini bildiradi. Umuman olganda Mark Riz tarjimini to'g'ri muqobilini bera olgan. Tarjimini quyidagi variantda bersa ham bo'ladi:

*"You?" he smiles. "Even if you are not a father, you are a faithful and kind person who piled me with paternal love-that is, a spiritual father"*.

XX asrda yaratilgan asarlar oradan bir asr vaqt o'tib ikkinchi bor qayta yaratilishdek jarayonni boshdan kechirmoqda. Jumladan, Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar", "Mehrobdan chayon" Muso Toshmuhammad o'g'li Oybekning "Navoiy" kabi romanlari tarixiy mavzudagi asarlardan hisoblanadi va o'z navbatida bu asarlarni tarjima qilish uchun tarjimonda faqat tilshunoslik va adabiyotshunoslik sohalariga aloqador bo'lgan bilimlarning o'zi kifoya qilmaydi, albatta. Tarjimon asar yaratilgan davrdagi ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy, iqtisodiy hayotni kitobxon ko'z o'ngida qayta jonlantirib berishi uchun asar yaratilgan davrga oid bo'lgan tarixdan va tarixiy voqelikdan ham yaxshi xabardor bo'lishi talab etiladi. Shundagina asar shakl va mazmuni saqlangan holda asar yaratilgan davrdagi hayotning jonli tasvirini ifodalab bera oladi.

Tarjima nazariyasi va amaliyotida muqobil varianti mavjud bo'lmagan so'zlarni tarjima qilishning quyidagi usullari ishlab chiqilgan:

1. Transliteratsiya.
2. Sarlavha osti izohlari va tushuntirish.
3. Kalkalash.
4. O'xshash so'zlar bilan tarjima qilish.
5. Tasviriy tarjima qilish.<sup>41</sup>

Yuqoridagi tarjima turlari orasida tarjima uchun transliteratsiya usuli ham alohida ahamiyatga ega hisoblanadi. Transliteratsiyadan badiiy asarlarni tarjima qilish jarayonida, asosan asarda keltirilgan shaxs otlari, joy nomlari, shuningdek ma'lum xalqqagina xos bo'lgan urf-odat va an'analarni tarjima qilish davomida unumli foydalaniladi. Transliteratsiya yoki transkripsiya usulida tarjima qilish bu so'zning ayrim harflarini o'zgartirish yoki aynan keltirish bilan qilinadigan tarjimadir. "Tarjima qilish mumkin bo'lsa ham, ba'zan ayrim so'zlarni transliteratsiya qilib, shundayicha qoldirishga to'g'ri keladi".<sup>42</sup>

Kalkalash usulidan foydalanib tarjima qilinganda so'zlar ikki xil usulda tarjima qilinadi. Biri to'liq kalkalash bo'lsa biri yarim kalkalashdir. Bunda kalkalash jarayonida faqat so'z+so'z ishtirok etishi ham mumkin yoki bo'lmasa so'z+qo'shimcha tarzida bo'lishi ham mumkin. Har qanday asarni tarjima qilish jarayonida imkon qadar tarjimon "ko'p bosqichli tarjima"dan chetlashishga harakat qilishi kerak. "Ko'p bosqichli tarjima" asar yaratilgan aslyat tildan tarjima qilmasdan boshqa tillarda qilingan tarjimalardan foydalangan holda tarjima qilish demakdir. Ayniqsa "ko'p bosqichli" tarjimadan tarjima qilish boshqa leksik birliklar bilan birga tarixiy va arxaik so'zlarni to'g'ri tarjima qilishga imkon bermagan o'rinlar ham bo'lgan. Aynan biz tahlilga tortgan "O'tkan kunlar" romanining Kerol Ermakova tomonidan tarjima qilingan variantida bunday holatlarni ko'p uchratish mumkin. Kerol Ermakova "O'tkan kunlar" romanini rus

<sup>41</sup> Гафуров И., Мўминов О., Қамбаров Н. Таржима назарияси. – Тошкент: Тафаккур бўстони, 2012. – Б. 122.

<sup>42</sup> Жўраев К. Таржима санъати. – Тошкент: Фан, 1982. – В. 51.

tilida tarjima qilingan variantidan foydalanib tarjima qilgan va eskirgan soʻzlarning tarjimasi bilan bogʻliq boʻlgan ayrim xatoliklarga yoʻl qoʻygan.

Bizningcha, tarjimon asarni tarjima qilishda asliyat va tarjima tilini asar voqealari aks etgan davr boʻyicha leksikologiya va leksikografiyasi bilan yaqindan ikki tilni qiyoslagan holda oʻrganib chiqsa tarjimada duch kelinishi mumkin boʻlgan ziddiyatlarni maʼlum darajada oldindan bartaraf etgan boʻladi. Jumladan, Abdulla Qodiriy oʻzining asarlarini yaratish jarayonida asarga asosiy material vazifasini oʻtagan tarixiy hududlarni kezib chiqadi. Shuningdek, aynan oʻsha tarixiy shaxslar baʼzilarining avlodlari bilan muloqotda boʻlib maʼlumot olishga ham muvaffaq boʻladi. “Oʻtkan kunlar” romanini tarjima qilgan tarjimonlardan biri boʻlmish Mark Riz ham asarda keltirilgan asosiy hududlarda yashab, ijodkor, asar voqealari qalamga olingan davr, shu hududning urf-odatlariga haqida maʼlumotlar toʻplagan. Bu ham oʻz navbatida “Oʻtkan kunlar” romani tarjimasidagi realiyalarning boshqa tarjimonlar amalga oshirgan tarjimasidan koʻra muvaffaqiyatli chiqishiga olib kelgan. Tarixiy asarlarda uchraydigan tarixiy va arxaik birliklarni quyidagi guruhlariga boʻlishimiz mumkin:

1. Harbiy qurol-aslaha nomlari.
2. Harbiy unvonlar.
3. Harbiy mansablar.
4. Diniy mansablar.
5. Diniy unvonlar.
6. Maʼlum bir ijtimoiy guruhni anglatuvchi leksik birliklar.
7. Kiyim-kechak nomlari.
8. Davlat siyosiy tuzilmasi.
9. Qonun hujjatlariga doir terminlar va boshqalar.

XX asrda yaratilgan bir necha asarlarda qoʻllangan bir xil arxaik va tarixiy soʻzlar mavjud boʻlib, biroq ularni tarjimonlar turli xil tarjima qilgan oʻrinlar ham uchraydi. Jumladan, biz bunday soʻzlarni Abdulla Qodiriyning “Oʻtkan kunlar”, “Mehrobdan chayon” va Muso Toshmuhammad oʻgʻli Oybekning “Navoiy” romanlarida keltirilgan tarixiy va arxaik soʻzlar misolida tahlilga tortdik. “Oʻtkan kunlar” romanida XIX asr ikkinchi yarmida yuz bergan voqealar tasvirlangan boʻlib, asarda ayni shu davrga oid boʻlgan eskirgan soʻzlar qoʻllanilgan boʻlsa, “Navoiy” romanida esa XV asrga mansub boʻlgan tarixiy hamda arxaik soʻzlar asosiy oʻrinni egallagan.

**Asliyat:** – *Bu kishi otangizning yaqin doʻstlaridan Mirzakarim qutidor*<sup>43</sup>.

**Tarjima:** “*Let me introduce one of your father’s closest friends, Mirza Karim Qutidor...*”<sup>44</sup>

**Asliyat:** ...yana Hirotning dongdor qutidor boyonlaridan bir nechasining qabul kutib turganini koʻrdi<sup>45</sup>.

**Tarjima:** ...few other famous Herat’s wealthies, who were waiting for the reception<sup>46</sup>.

<sup>43</sup> Qodiriy A. Oʻtkan kunlar. – Toshkent: Yangi nashr, 2019. – B. 10.

<sup>44</sup> Qodiriy A. Bygone Days. Translated by Mark Reese. – USA: Nashville TN, 2020. – P. 32.

<sup>45</sup> Muso Toshmuhammad oʻgʻli Oybek. Navoiy. – Toshkent: Yangi asr avlodi. 2021. – B. 278.

Qutidor soʻzi “Oʻtkan kunlar” romanida asar qahramonlaridan biri boʻlmish Mirzakarimning laqabi sifatida keltirilgan. Qutidor soʻzi eskirgan soʻz hisoblanadi. Qutidor soʻzining tarjimasida Mark Riz tomonidan qutidor tarzida keltirilgan boʻlib, shuningdek, tarjima osti izoh soʻzi berilgan. Agar shunday qilinmasa, qutidor xonliklar davrida bir koʻp vazifali amal ekanligidan ingliz tilidagi muqobili topilmas edi. I.M.Toʻxtasinov va O.M.Moʻminovlar tarjimasida qutidor soʻzi oʻrniga (wealthies) boylardan deb ketilgan. XV asrda qutidor soʻzi ulkan boylikka egalik qiluvchi shaxsga nisbatan qoʻllanilgani inobatga olinsa, tarjimada qutidor soʻzining muqobil varianti toʻgʻri berilgan. Har ikki tarjimada ham qutidor soʻzi asosli tarzda qoʻllangan hamda tarixiylik saqlab qolingan.

**Asliyat:** *Sufaga oʻn chogʻliq arkon chiqqandan soʻng, xon hudaychiga yana bir narsa deb qoʻydi*<sup>47</sup>.

**Tarjima:** *They were standing around it. The khan again told something to hudoychi*<sup>48</sup>.

“Hudaychi” tarixiy soʻzlar guruhiga mansubdir. “Hudaychi” arabcha soʻzdan olingan boʻlib, “boshqarmoq”, “yoʻl koʻrsatmoq” maʼnolarini ifodalaydi. Hudaychining vazifasi Oʻrta Osiyoda xonliklar davri hukm surgan asrlarda xonlarning huzuriga rasmiy masalalar yuzasidan murojaat qilib kelgan shaxslarning murojaatlarini xonga xabar bergan va xonning javobini murojaatchilarga yetkazish bilan shugʻullangan amaldor hisoblangan. Mark Riz Hudaychi soʻzini transliteratsiya usulida tarjima qilgan va izoh bergan. I.M.Toʻxtasinov, U.R.Yoʻldoshev, A.A.Hamidovlar ham transliteratsiya usulida tarjima qilgan, biroq sarlavhaosti va tushuntirishlar bermagan. Hudaychi soʻzining tarjimasida Mark Riz tomonidan toʻgʻri berilgan.

Tarjimon aksariyat hollarda har bir leksik birlikni asarda nazarda tutilgan mazmun mohiyati, milliylik va uslubiy jihatlariga koʻra, tarjima til imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda muqobil variantini topib qoʻllashga urinadi. Biroq tarixiy asarlar tarjima qilinayotganda har doim ham har bir leksik vositaning asliyatda qoʻllanilgan muqobil variantini tarjima tilidan topib boʻlmasligi mumkin. Chunki “...Asliyatning “arxaik” xususiyati tarjimada zamonaviy soʻz va iboralardan muqobil vositalar sifatida foydalanish imkoniyatini bermaydi”<sup>49</sup>.

Umuman olganda, tarjimashunoslik va tarjima ilmi XX asrda keng miqyosda taraqqiy etgan boʻlsa, XXI asrga kelib oʻzining yangi rivojlanish bosqichiga kirdi. Tarjima sohasiga doir bir qancha ilmiy adabiyotlar yaratildi. Tarjimaning diqqatga sazovor jihati shundaki, oʻzbek tilida yaratilgan asarlar ham oʻzbek tarjimonlari ham xorijlik tarjimonlar tomonidan bir necha bor tarjima qilindi. Tarjima asarlarda variantlilik yuzaga keldi. Tarjima asar variantlarini qiyosiy oʻrganish imkoni paydo boʻldi. Biz tahlilga tortgan realiyalarning aksariyati tarixiy va arxaik soʻzlar boʻlib, ularning maʼlum bir qismi hozirgi kunda umumxalq isteʼmolidan chiqib ketib, faqat lugʻatlardagina saqlanib qolgan.

<sup>46</sup> Oybek. Navoi. Translated by Tukhtasinov I.M., Muminov O.M. – Tashkent: Yangi asr avlodi, 2021. – P. 300.

<sup>47</sup> Qodiriy A. Mehrobdan chayon. – Toshkent: Navroʻz, 2019. – B. 152.

<sup>48</sup> Qodiriy A. The scorpion from the altar. Translated by I.M.Tukhtasinov, U.R.Yoldoshev, A.A.Khamidov. – Tashkent: Mashhur press, 2019. – P. 157.

<sup>49</sup> Мусаев Қ. Таржима назарияси асослари. – Тошкент: Фан, 2005. – В. 111.

“O‘tkan kunlar” tarjimoni Mark Riz, “Navoiy” (I.M.To‘xtasinov va O.M.Mo‘minovlar) va “Mehrobdan chayon” romanlari tarjimonlari I.M.To‘xtasinov, U.R.Yo‘ldoshev, A.A.Hamidovlar tarjima jarayonida asarda ishtirok etgan milliylikni ifodalagan realiyalarning avvalo asliyatdagi muqobil variantini tarjima tilidagi muqobil variantdan topib tarjima qilgan. Muqobili yo‘q so‘zlarning tarjimasi sarlavhaosti izohlari orqali berilgan.

Tarixiy va arxaik so‘zlarni tarjima qilish jarayonida tarjimaning asosan transliteratsiya yoki transkripsiya usulidan foydalanib tarjima qilinganligi ko‘zga tashlanadi. Milliy xarakter xususiyatlari aks etgan o‘rinlar ko‘proq so‘zma-so‘z tarjima usulida tarjima qilingan. “O‘tkan kunlar”, “Navoiy”, “Mehrobdan chayon” romanlari tarjimalarida ma‘nosi yetarlicha ochilmagan yoki boshqa ma‘noni ifodalovchi leksik birliklar ham mavjud. Umuman olganda, o‘zbek tilidan ingliz tiliga bevosita tarjima qilingan asarlar sifatida realiyalar aksariyat hollarda o‘z muqobil variantini topib, asar yaratilgan asr ruhini yoritadigan tarzda tarjima qilingan.

## XULOSA

XX asr o‘zbek romanlarining inglizcha tarjimalarida milliylikning ifodalanishi mavzusi bo‘yicha olib borilgan ilmiy kuzatuvlar natijasida dissertatsiyadagi barcha vazifalar bajarildi va qo‘yilgan muammolar o‘z yechimini topdi. Olib borilgan ilmiy tadqiqotlar samarasi sifatida quyidagi umumiy xulosalarga kelindi:

1. XX asr o‘zbek romanlari xalqimizning milliy ma‘naviyati, dunyoqarashi, jamiyatda hukm surayotgan mavjud ijtimoiy-siyosiy tuzumga bo‘lgan munosabati, tarixi va davr ijtimoiy-siyosiy manzarasini o‘zida ifoda etganligi bilan ahamiyatlidir. Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar”, “Mehrobdan chayon” hamda Muso Toshmuhammad o‘g‘li Oybekning “Navoiy” romanlarida jamiyatda hukmron tabaqa vakillarining xalqni talashi, odamlarning insof va adolatga tashna ekanligi, xalqning milliy ongini uyg‘otishga yo‘naltirilgan g‘oyalarning mohirlik bilan singdirib yuborilganligi, o‘sha davrda mavjud tarixning haqqoniy tarzda umumxalq tilida yoritib berilganligi XX asr o‘zbek romanlarining o‘ziga xos xususyatlarini tashkil etadi.

2. Hozirgi davrda jahon adabiyotining mashhur asarlarini o‘zbek tiliga o‘girish bilan birga, o‘zbek adabiyotining durdona asarlarini xorijiy tillarga tarjima qilish jarayoni faollashmoqda. Xususan, o‘zbek romanchilik maktabining asoschisi Abdulla Qodiriy qalamiga mansub “O‘tkan kunlar” romanining rus tilidagi matnidan ingliz tiliga tarjimini 2018-yilda britaniyalik Kerol Ermakova amalga oshirgan bo‘lsa, bevosita o‘zbekcha nusxadan ingliz tilidagi tarjimalar 2017-yilda o‘zbekistonlik mutaxassislar I.To‘xtasinov, O.Mo‘minov, A.Hamidov; 2019-yilda esa amerikalik tarjimon Mark Riz tomonidan amalga oshirildi. Shuningdek, Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romani 2019-yilda I.To‘xtasinov, U.Yo‘ldoshev, A.Hamidov; Oybekning “Navoiy” romani 2021-yilda I.To‘xtasinov va O.Mo‘minovlar tomonidan ingliz tilida nashr etilishi natijasida o‘zbek



adabiyotining olamshumul ahamiyati yanada ortdi.

3. Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” va “Mehrobdan chayon”, Oybekning “Navoiy” romanlarining asliyat matnida berilgan badiiy tasvir vositalarini qayta yaratishda tarjimonlar matnning badiiylik va o‘ziga xoslik xususiyatlarini saqlab qolishga uringan, milliylikni ifodalovchi leksik birliklarning to‘g‘ri tarjima qilinishi natijasida o‘zbek xalqining madaniy-milliy koloriti mohiyati ochib berilgan.

4. Kerol Ermakova tarjimasida jumlar tuzilishining soddaligi, eskirgan so‘zlar tarjimasi bilan bog‘liq ayrim xatoliklar hamda tarixiy va arxaik so‘zlarning yetarlicha izohlanmaganligi ko‘zga tashlanadi. Mark Riz, I.To‘xtasinov, U.Yo‘ldoshev va A.Hamidovlar tarjimalarida Abdulla Qodiriy va Oybek ijodining asl poetikasini saqlashga alohida urg‘u berilganligi, tarjimonlar mahorati tufayli asliyatdagi badiiylik va ijodkor uslubi ma‘lum darajada qayta yaratilganligini ko‘rish mumkin. Romanlarning ingliz tiliga tarjimalarida to‘la ma‘noda o‘zbek xalqining milliy urf-odatlarini, o‘sha davrda xalq boshidan kechirgan qiyinchiliklar, nohaqliklar batafsil ifodalangan.

5. Tarjimonlar “O‘tkan kunlar”, “Mehrobdan chayon” va “Navoiy” romanlari badiiy matnlarida keltirilgan milliy xarakter xususiyatlarini aks ettiruvchi birliklarning muqobil variantlarini berishda tarjimaning ekvivalent va transliteratsiya usullaridan ko‘proq foydalanganligi, milliy xarakterni ifodalovchi frazeologik birliklarning tarjimada tushurib qoldirilishi asar originalligiga putur yetkazishi va milliy xarakterning to‘liq ochib berilmasligiga olib kelishi mumkinligi o‘rganildi.

6. “O‘tkan kunlar” romani tarjimoni Mark Riz, “Navoiy” romani tarjimonlari I.To‘xtasinov va O.Mo‘minov hamda “Mehrobdan chayon” romani tarjimonlari I.To‘xtasinov, U.Yo‘ldoshev, A.Hamidovlar tarjima jarayonida asarda ishtirok etgan milliylikni ifodalagan realiyalarning, avvalo, asliyatdagi muqobil variantini tarjima tilidagi muqobil variantdan foydalanib tarjima qilganligini ko‘rish mumkin. Muqobili mavjud bo‘lmagan so‘zlar tarjimasini esa sarlavhaosti izohlari orqali beradi.

7. XX asr o‘zbek romanlarining inglizcha tarjimalarida tarixiy va arxaik so‘zlarni tarjima qilish jarayonida asosan transliteratsiya yoki transkripsiya usulidan foydalanilganligi, milliy xarakter xususiyatlari aks etgan o‘rinlarning ko‘proq so‘zma-so‘z tarjima usulida o‘girilganligi, realiyalarning aksariyat hollarda o‘z muqobil varianti vositasida asar yaratilgan davr ruhini yoritadigan tarzda tarjima qilinganligi tadqiq etildi.

8. “O‘tkan kunlar”, “Mehrobdan chayon” va “Navoiy” romanlarining inglizcha tarjimalaridagi milliylikni aks ettiruvchi birliklarning aksariyati aforizmlar, tarixiy maqollar va iboralar ekanligi hamda ular orqali XV va XX asrlarda yashagan o‘zbek xalqining siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ma‘naviy hayoti tasvirlanganligi o‘rganildi.

9. Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” va “Mehrobdan chayon”, Oybekning “Navoiy” romanlarining badiiy matnlaridagi semantik xususiyatlarni

tarjimada aks ettirishda kommunikativ vositalarning dolzarbligi aniq misollar tahlili orqali asoslab berildi.

10. XX asr o‘zbek romanlarida milliylikni ifodalovchi birliklarni ingliz tiliga tarjima qilishda tarjimonlarning so‘zma-so‘z tarjima qilish, transliteratsiya va ekvivalent tarjima tamoyillariga asoslanganligi aniqlandi hamda romanlarda keltirilgan maqol, ibora, tarixiy va arxaik so‘zlarning xususiyatlarini badiiy tarjima matnida qayta yaratish usullari masalasi tahlil qilindi.

11. XX asrda yaratilgan “O‘tkan kunlar”, “Mehrobdan chayon” va “Navoiy” romanlarining inglizcha tarjimalari amalga oshirilishi natijasida xorijlik o‘quvchilar o‘zbek xalqining turmush tarzi, milliy urf-odatlarini, dunyoqarashi, salohiyati bilan yaqindan tanishadi hamda o‘zbek adabiyotining durdona asarlari jahon adabiyotshunosligining oltin fondidan munosib o‘rin oldi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ  
PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 ПРИ САМАРКАНДСКОМ  
ГОСУДАРСТВЕННОМ ИНСТИТУТЕ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**

---

**МЕЖДУНАРОДНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ТУРИЗМА И КУЛЬТУРНОГО  
НАСЛЕДИЯ “ШЕЛКОВЫЙ ПУТЬ”**

**АБЛАКУЛОВА ИРОДА КАМОЛИДИНОВНА**

**ВЫРАЖЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ОСОБЕННОСТЕЙ В  
АНГЛИЙСКИХ ПЕРЕВОДАХ УЗБЕКСКИХ РОМАНОВ XX ВЕКА**

**10.00.06 – Сравнительное литературоведение, сопоставительное языкознание и  
переводоведение**

**АВТОРЕФЕРАТ  
диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам**

**Самарканд – 2024**

**Тема диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссией при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2021.3.PhD/Fil.1972.**

Диссертация выполнена в Международном университете туризма и культурного наследия «Шелковый путь».

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета ([www.samdhti.uz](http://www.samdhti.uz)) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» [www.ziyo.net.uz](http://www.ziyo.net.uz).

<b>Научный руководитель:</b>	<b>Рузманова Рохила Усмановна</b> кандидат филологических наук, доцент
<b>Официальные оппоненты:</b>	<b>Умурова Гузал Хотамовна</b> доктор филологических наук, профессор <b>Файзуллоев Отабек Мухаммадович</b> доктор философии (PhD) по филологическим наукам
<b>Ведущая организация:</b>	<b>Ташкентский Государственный Университет Востоковедения</b>

Защита диссертации состоится «\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2024 года в \_\_\_ часов на заседании Научного совета Ph.D.03/30.12.2019.Fil.83.01 при Самаркандском государственном институте иностранных языков. Адрес: 140104, Узбекистан, Самарканд, улица Бустонсарой, 93. Тел: (99866) 233-78-43; факс (99866) 210-00-18; e-mail: [info@samdhti.uz](mailto:info@samdhti.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Самаркандского государственного института иностранных языков (рег. № \_\_\_\_). Адрес: 140104, г. Самарканд, ул. Бустонсарой, 93. Тел.: (99866) 233-78-43.

Автореферат диссертации разослан «\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2024 года.  
(реестр протокола рассылки № \_\_\_\_\_ от \_\_\_\_\_ 2024 г.)

**А.А. Яхшиев**

Председатель научного совета по присуждению ученых степеней, доктор филологических наук (DSc), профессор

**Г.К. Мирсанов**

Учёный секретарь научного совета по присуждению ученых степеней, доктор филологических наук (DSc), доцент

**Ш.С. Сафаров**

Председатель научного семинара при Научном совете, по присуждению ученых степеней, доктор филологических наук, профессор

## ВВЕДЕНИЕ (Аннотация докторской диссертации (PhD))

**Актуальность и необходимость темы диссертации.** Сравнительное исследование переводов художественных произведений, **выражение** национальных особенностей в переводе, научная оценка и исследование аутентичности перевода, воссоздание историко-национальной картины мира в переводном произведении, а также анализ этих проблем с научно-теоретической точки зрения являются актуальными проблемами мирового литературоведения. В настоящее время важными задачами считаются перевод исторических романов, отражающих проблему воссоздания национальных особенностей, комплексное изучение межкультурных различий в переводе, исследование произведений определенного автора с учетом принципов перевода и художественности.

В ведущих научно-исследовательских школах мира освещаются лексико-семантические проблемы текста, связанные с отражением национальных особенностей в английских переводах узбекских романов, созданных в XX веке, передачей в переводе пословиц, выражений, исторических и архаических слов. **Ведутся** определенные научные исследования, посвященные изучению практического процесса перевода, анализу средств художественного **изображения** в переводе. В частности, **исследуется** роль коммуникативных средств в отражении семантического характера художественного текста в переводе, семантические, прагматические особенности пословиц и поговорок в художественном тексте. Особое внимание уделяется таким вопросам, как методы перевода исторических и архаических слов, способы выражения семантических особенностей фразеологических единиц с помощью доминантной лексики.

В целях интеграции независимого Узбекистана в мировое сообщество особое уделяется внимание реализации реформ по переводу образцов национальной литературы на английский язык и представлению их вниманию народов мира. Стремительность и новаторские идеи, присущие тому времени, способствуют формированию новых научных подходов и взглядов в изучении образцов узбекских романов XX века. В частности, перед литературоведами и лингвистами ставятся такие важные задачи, как изучение прозаических произведений в связи с социально-культурными отношениями эпохи посредством новых направлений современного литературоведения, перевод на мировые языки, широкое распространение среди народов мира романов, прославляющих культуру узбекского народа. Для повышения качества и масштабов научных исследований в области литературоведения, языкознания и переводоведения предусмотрена «Программа мер по переводу лучших образцов мировой литературы на узбекский язык и лучших произведений узбекской литературы на иностранные языки»<sup>50</sup>. По этой причине сравнительное исследование

---

<sup>50</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida»gi farmoyishi // Xalq so‘zi, 2017-yil 13-yanvar, № 9 (6703).

переводов романов Абдуллы Кадыри «Минувшие дни» и «Скорпион из алтаря», а также романа Айбека «Навои» на английский язык, выражение национального своеобразия в переводе, научная оценка аутентичности перевода, воссоздание историко-национальной картины мира в переводном произведении, а также анализ этих проблем с научной и теоретической точки зрения приобретают особую актуальность.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач, предусмотренных в Указах Президента Республики Узбекистан № УП-4947 от 7 февраля 2017 года «О стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан», № УП-5847 от 8 октября 2019 года «Об утверждении концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года», № УП-5850 от 21 октября 2019 года «О мерах по кардинальному повышению роли и авторитета узбекского языка в качестве государственного языка», № УП-6108 от 6 ноября 2020 года «О мерах по развитию сфер образования и воспитания, и науки в новый период развития Узбекистана», № УП-60 от 28 января 2022 года «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы»; в Постановлениях Президента Республики Узбекистан № ПП-1875 от 10 декабря 2012 г. «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы изучения иностранных языков», № ПП-5117 от 19 мая 2021 года «О мерах по поднятию на качественно новый уровень деятельности по популяризации изучения иностранных языков в Республике Узбекистан» и других нормативно-правовых документах, связанных с данной деятельностью.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики.** Данное исследование проводится в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий Республики Узбекистан «Формирование системы инновационных идей и путей их реализации в социально-правовом, экономическом, культурном, духовно-образовательном развитии информационного общества и демократического государства».

**Степень изученности проблемы.** Проблема перевода художественных произведений на иностранные языки и выражения национального колорита в переводе исследовалась отечественными и зарубежными учеными.

Различными проблемами художественного перевода среди зарубежных ученых занимались Р.Белл, С.Басснетт, М.Бахтин, Ю.Кристева, В.Комиссаров, Л.Алексеева, Дж.Виней, Дж.Дарбельнет, П.Крингс, Э.Генцлер, К.Лю, Х.Чжан, А.Барселона и др.<sup>51</sup>

---

<sup>51</sup> Bell R. Translation and translating: Theory and practice. – London and New York: Longman, 1991. – 162 p.; Bassnett S. Translation Studies. – London and New York: Psychology Press, 2002. – 176 p.; Бахтин М.М. Автор и герой: к философским основам гуманитарных наук. – СПб.: Азбука, 2000. – 336 с.; Кристева Ю. Бахтин, слово, диалог и роман // Французская семиотика: От структурализма к постструктурализму. – М.: Прогресс, 2000. – С. 427-457; Комиссаров В.Н. Современные переводоведение. – М.: ЭТС, 2002. – 424 с.; Алексеева Л.М. Специфика научного перевода. – Пермь: Издательство Пермского университета, 2002. – 125 с.; Vinay J.P. and Darbelnet J. Stylistique comparée du français et de l'anglais. – Paris: Didier: Georgetown University Press, 1977. – 331 p.; Krings H.P. Translation Problems and Translation Strategies of Advanced German Learners of French. In J. House, S. Blum-Kulka (Eds.), Interlingual and intercultural communication. Tübingen: Gunter Narr, 1986. – P. 263-275; Gentzler E. Metaphor and Translation. Encyclopaedia of Literary Translation into English Vol.

